



TA'LIM-TARBIYA SOHASIGA YANGICHA YONDASHUV — BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI

Mamasolieva Shoxista Abdugapparovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,

“Jamoat salomatligi va sog‘likni saqlash menejmenti”

kafedrası kata o‘qituvchisi

Israilova Sohiba Buribaevna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,

“Jamoat salomatligi va sog‘likni saqlash menejmenti”

kafedrası kata o‘qituvchisi

Mustaqillik yillarida yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish, ertangi kunimizning munosib davomchilarini kamolga yetkazishning mustahkam tashkiliy-huquqiy mexanizmi yaratildi. Sohaga oid qabul qilingan qator davlat dasturlariga binoan ko'plab ta'lim muassasalari yangidan qurildi, eng zamonaviy o'quv anjomlari bilan ta'minlandi. Bu boradagi ishlar bugungi kunda yanada jadal tus olmoqda. Dunyo taraqqiyoti shiddati barcha soha kabi ta'lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuvni, innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilishni taqozo etayapti. Darhaqiqat, yosh avlodga zamon talablari asosida bilim berish uchun, tabiiyki, o'qituvchi-pedagoglar malakasi va mahorati yuksak bo'lmog'i lozim. Ayniqsa, bugun yoshlar juda ilg'or fikrlamoqda. Darslarni ularning talabiga mos, yuqori darajada tashkil etish uchun o'qituvchi muntazam ravishda har bir mashg'ulotga alohida tayyorgarlik ko'rishi zarur. Shu nuqtai nazardan, xalq ta'limi tizimiga yangi va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, o'quv dasturlarini joriy etish bilan birga, pedagoglarning kasbiy mahoratini izchil oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: Pedagog, ta'lim, tarbiya, maktab, o'quvchi, talabab kadrlar, taraqqiyot.

Annotatsiya. Ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahorati muhim o'rin tutadi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Konstitutsiyamizga kiritilgan va qabul qilingan o'zgarishlarda pedagoglarning saviyasini oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini kompleks rivojlantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratdi. Ayni paytda xalq ta'limi tizimida pedagoglarning



kasbiy va ma'naviy saviyasini yanada yuksaltirish borasida katta ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'lim-tarbiya tizimida o'quv reja va dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligini qayd etdi. Bu boradagi vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borila yotgan ishlarga to'xtalsak, albatta, ta'lim muassasalarida darslarni samarali tashkil etishda, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yetuk kadrlar bilan bir qatorda ta'limga doir me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik ta'minotning o'rni ham benihoyat ahamiyatlidir. Prezidentimiz tomonidan o'qitishning zamonaviy metodologiyasini yaratish va amaliyotga joriy etish, o'quvchilarning ongli ravishda kasb-hunar tanlash ishtiyoqini kuchaytirish, darsliklarni yaratishga butunlay yangicha yondashish kabi dolzarb vazifalar aynan shu maqsaddan kelib chiqilgan holda qo'yilmoqda. Haqiqatan ham, globallasuv jarayonining jadallashuvi o'quv dasturlarimizni tubdan qayta ko'rib chiqishni, keng bilimga ega bo'lgan, mantiqiy fikrlay oladigan yoshlarni voyaga yetkazishga xizmat qiladigan, takomillashgan me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik majmualarni yaratishni taqozo etmoqda.

O'tgan yillarda o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida xalqaro hamda milliy tajribalardan kelib chiqqan holda, 2030 yilgacha oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish hamda respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish ko'zda tutilgan.

Metodik xizmatning o'qituvchi ehtiyojiga asoslangan yangi shakllarini yaratish, ta'lim sifatini baholash jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish ham muhim vazifalarimizdan hisoblanadi.

Bu kabi ishlarning yo'lga qo'yilishi, ayni paytda aholining haqli e'tiroziga sabab bo'layotgan bir qator muammolar, jumladan, o'quv muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi kamchiliklarning barham topishiga xizmat qiladi.

Ularning mazmuni tahlil etilib, eng ko'p ariza, shikoyat va takliflar kelib tushayotgan masalalar — ish bilan ta'minlash, ta'lim muassasasiga o'qishga kirish



va joylashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati, ta'lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish, maktablarda dars taqsimoti bo'yicha muammolarning oldini olish choralari ko'rilmoqda. Shuningdek, murojaatlar nisbatan ko'p kelib tushayotgan hududlarda qabul kunlari, ochiq eshiklar kuni o'tkazilayapti.

Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar bilan bog'liq "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA" gi farmoni ishlab chiqildi.

Ushbu sa'y-harakatlarning amalga oshirilishi natijasida ko'ra O'zbekiston Respublikasida 9 691 ta umumta'lim maktablari (jumladan, ayrim fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan 350 ta davlat ixtisoslashtirilgan muassasalari) mavjud.

Umumta'lim maktablaridagi umumiy o'quvchilar soni 5,8 millionni tashkil qiladi. Shuningdek, 86 ta nodavlat ta'lim muassasasida 13,8 ming nafarga yaqin o'quvchi tahsil oladi.

Bolalarning ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish imkoni yaratilgan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ("Barkamol avlod" markazlari) faoliyati yo'lga qo'yilgan.

"Barkamol avlod" markazlarida 5 540 ta to'garak tashkil etilgan va ularga 143 ming nafarga yaqin bolalar qamrab olingan.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim tizimida boshlang'ich kasb-hunar ta'limi joriy etilgan bo'lib, 51 turdagi ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar kollejlari hamda umumta'lim maktablarida 1 748 ta o'quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etilgan.

Xalq ta'limi tizimida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta maktab-internat mavjud bo'lib, ularda 20 610 nafar bola ta'lim olmoqda.

Shuningdek, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va uzoq muddatli davolanishga muhtoj 13 437 nafar bolalar uyda ta'lim olmoqda.

Alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalarning ta'limi 2 ta ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasida amalga oshirilmoqda.



19 ta Mehribonlik uyi va 3 ta bolalar shaharchasida 2 577 nafar yetim hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiyalanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 9 691 ta umumta'lim maktablari (jumladan, ayrim fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan 350 ta davlat ixtisoslashtirilgan muassasalari) mavjud.

Umumta'lim maktablaridagi umumiy o'quvchilar soni 5,8 millionni tashkil qiladi. Shuningdek, 86 ta nodavlat ta'lim muassasasida 13,8 ming nafarga yaqin o'quvchi tahsil oladi.

Bolalarning ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish imkoni yaratilgan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ("Barkamol avlod" markazlari) faoliyati yo'lga qo'yilgan.

"Barkamol avlod" markazlarida 5 540 ta to'garak tashkil etilgan va ularga 143 ming nafarga yaqin bolalar qamrab olingan.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim tizimida boshlang'ich kasb-hunar ta'limi joriy etilgan bo'lib, 51 turdagi ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar kollejlari hamda umumta'lim maktablarida 1 748 ta o'quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etilgan.

Xalq ta'limi tizimida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta maktab-internat mavjud bo'lib, ularda 20 610 nafar bola ta'lim olmoqda.

Shuningdek, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va uzoq muddatli davolanishga muhtoj 13 437 nafar bolalar uyda ta'lim olmoqda.

Alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalarning ta'limi 2 ta ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasida amalga oshirilmoqda.

19 ta Mehribonlik uyi va 3 ta bolalar shaharchasida 2 577 nafar yetim hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiyalanmoqda.

Yangilangan dasturlar bolalarni maktabga yanada sifatli tayyorlash, ularning intellektual qobiliyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini yuksaltirish, oldingidan farqli o'laroq, yozish hamda o'qishni jadal o'rganishiga xizmat qiladi.

Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida amaliyotga yo'naltirilgan yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari samaradorligi ga to'xtaladigan bo'lsak, ta'kidlash kerakki, bugungi kunda bolalar chet tillarni shu



sohaga oid yangi davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlariga mos darsliklar asosida katta qiziqish bilan o'rganmoqda.

E'tiborlisi, oliy ta'lim tizimida talabalarga xamda maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatish borasida o'ziga xos yondashuvlar tanlandi. Xususan, bolalar til o'rganish barobarida, milliy qadriyat va an'analarimizga solishtirgan holda tili o'rganilayotgan xalq madaniyati bilan tanishadi. Darsliklarga o'zbek hamda jahon adabiyoti ijodkorlari ijodidan namunalar ham kiritilganki, bu talabalarda va bolalarda mutolaa madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kitobxonlik madaniyati xalqning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Shu bois bugun yurtimizda aholining, ayniqsa, yosh avlodning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda...

Gap shu haqda borar ekan, Prezidentimizning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi yosh avlod qalbida kitobga mehr uyg'otish, komil insonni tarbiyalash borasida juda muhim qadam bo'lganini aytish joiz. Bundan ko'rinadiki, mazkur yo'nalishda zimmamizdagi mas'uliyat va vazifalar yanada ortdi.

2000 yilda O'zbekistonda 6027 ta kutubxona mavjud bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilga kelib 402 tagacha qisqarib ketgan. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni 2000 yilda shahar joylarda 1013tani, qishloq joylarda esa 5014tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib shahar joylardagi markazlar soni 365tagacha, qishloq joylardagi markazlar soni 37tagacha kamayib ketgan. Shuning uchun ularni miqdori kupaytirish va kengaytirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son qarori ijrosini ta'minlash hamda axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish, fondlarni saqlash va hisobdan chiqarish sohasini tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi.

Shuningdek, OTM larda ma'naviyat va axborot soatlarida hamda maktab o'quvchilari, ularning ota-onalari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish hamda rag'batlantirish maqsadida ta'lim muassasalarida "Kitob taqdimoti", "Adabiyot kunlari", "Kitobim — oftobim" nomli ma'rifiy tadbirlar, ota-onalar ishtirokida "Bir farzandga — uch kitob" aksiyalari va "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" hamda "Kitobxon maktab" tanlovlarini o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Xulosa. OTM va maktab kutubxonalari va axborot-resurs markazlarida milliy hamda jahon bolalar adabiyotlariga, zamonamiz qahramonlari obrazi ochib berilgan



yoshlarbop yangi asarlarga ehtiyoj katta. Shuni hisobga olgan holda, o‘quvchilarda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining loyihasi ishlab chiqildi. Unda ko‘zda tutilgan tadbirlar, albatta, badiiy didi hamda saviyasi yuqori, chin insoniy fazilatlariga, keng dunyoqarash va yuksak ma’naviyatga ega avlodni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Umuman, davlat hamda jamiyat ravnaqi yosh avlodning intellektual salohiyati, intilishi, shijoati bilan uzviy bog‘liq. Shunga ko‘ra, ta’lim-tarbiyani zamon talablari asosida takomillashtirishga mamlakatimiz barqaror rivojining muhim sharti sifatida yondashilayotgani ayni muddadir. Zero, ona Vatanga sadoqatli, bilimli, chinakam komil insonlarni voyaga yetkazish bugun barchamizning ulug‘vor maqsadimizga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. YuLDOShEVA, Shaxnoza Avazovna, and Shoxista Abdugapparovna MAMASOLIEVA. "SOG ‘LOM TURMUSH TARZINI OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARI O ‘RTASIDA SHAKLLANTIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI O ‘RGANISH." *JURNAL BIOMEDITSINBI I PRAKTIKI* 7 (2022).
2. Mamasolieva Sh., Xegay R. O. POVBISHENIYA MEXANIZMOV EKONOMICHESKOY I ORGANIZATSIONNOY EFFEKTIVNOSTI UPRAVLENIYA SFEROY ZDRAVOOXRANENIYA //Involta Scientific Journal. – 2023. – T. 2. – №. 3. – S. 37-43.
3. Abdugapparovna M. S., Alamovich K. A. Mechanisms for Increasing the Economic and Organizational Efficiency of the Management of the Medical Service Sector //Texas Journal of Medical Science. – 2023. – T. 18. – S. 150-153
4. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6216084>
5. <https://lex.uz/docs/-4312785>
6. <https://kun.uz/uz/news/2023/06/29/oxirgi-20-yilda-ozbekistondagi-kutubxonalar-soni-15-barobarga-kamayib-ketgan>